

INGLIZ TILI GRAMMATIKASIDA SIFAT DARAJALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Termiz davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

1-bosqich 124-guruh talabasi

ABDURAHMONOVA SARVINOZ

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingl tili morfologiyasida eng muhim mavzulardan biri bo'lmish sifat darajalari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, daraja kategoriyalarining leksik, semantik va morfologik xususiyatlariga alohida to'xtaladi.

Kalit so'zlar: sifat, darajalar, affiks, artikl, lingvistik tahlil.

Abstract: This article analyzes the linguistic aspects of adjectives, one of the most important topics in the morphology of the English language. It also focuses on the lexical, semantic and morphological characteristics of the categories of adjectives.

Keywords: adjective, adjectives, affixes, articles, linguistic analysis.

Kundan kunga rivojlanish qadamlarini bosib o'tayotgan zamonaviy dunyomizda insonlarning boshqa chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlari ham yuqori pog'onalarga ko'tarilmoqda. Butun dunyoda tan olingan mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatov aytganlaridek: "Til yo'qolsa, xalq ham yo'qoladi". Shunday ekan, har bir millatning har bir a'zosi uchun o'z tilini asrab-avaylash, unga hurmat ko'rsatish oliy vazifadir. Binobarin, har bir millatning tili o'z adabiy ko'rinishiga hamda grammatik kategoriyalariga ega. Jumladan, ingliz tili grammatika tizimi ham rang-barang zamonlar zanjiri, morfologik strukturalar, sintaktik qurilmalar kabi muhim belgilar bilan to'la. Yuqoridagilarning barchasi ingliz tilini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Bunga sabab qilib, grammatikaning aniq va tushunarli qilib mazmun ifodalashda, so'z boyligidan to'g'ri foydalanish yoxud to'g'ri gap tuzishdagi vazifasini ko'rsatishimiz mumkin. Misol uchun, butun jahon bo'ylab ommalashgan IELTS tizimidagi barcha skillar: listening, reading, speaking and writinglarning asosi ham bevosita grammatika bilan uzviy bog'liq. Agar siz sintaktik, ya'ni gap tuzilishini o'rganuvchi bo'lim haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lsangiz, speaking va writing skillaridagi muammolarni tez hal qila olasiz. Chunonchi, gapda so'zlarning to'g'ri joylashuvi, ularning leksik ma'nolari va so'z turkumlarining mos ravishda o'zaro bir-biriga bog'lanishi kabi morfologik ma'lumotlar haqida xabardor bo'lsangiz, listening va reading skillarini o'zlashtirishingiz "xamirdan qil sug'urganday" oson kichadi. Morfologiya bo'limida o'z o'rniga ega bo'lgan so'z turkumlaridan biri bu - adjective (sifat) va the degrees of adjective (sifat darajalari) hisoblanadi.

In English grammar, adjective – a word used with a noun to describe or point out the person, animal, place or thing, which the noun names or to tell the number of quantity.¹

Example: Anna is a clever girl. In sentence “clever” is an adjective which shows what kind of girl Anna is or in other words, “clever” describes the girl Anna. Sifat kategoriyasidagi so‘zlar biror predmet, voqeа - hodisa va holatning belgi - xususiyatlarini (ya'ni rangini, hajmini, shaklini, xarakterga xos jihatlarini, vaznini, massasini) ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: qizil olma, sabrli odam, shinam uy kabi. In English and Uzbek grammar, an adjective is neither singular nor plural. A final -s is never added to an adjective. Example: I saw some beautiful pictures ✓ Beautifuls pictures ✗

Adjectives have their own degrees called degrees of adjectives or degrees of comparison that compare one thing or person to another. There are 3 degrees of adjectives: positive, comparative and superlative degree in English.

1.THE POSITIVE DEGREE - is the adjective in its simple form. It is used to express the mere existence of some quality of what we speak about. Also it is used when no comparison is made. Oddiy daraja – biror - bir ot oldidan kelib, qiyoslamaydi ham, ortiq joyini ham ko‘rsatmaydi. Shunchaki, otning belgi-xususiyatini aniqlab keladi. Masalan: My bag is small or Sara is a helpful person. Oddiy daraja shakli oldidan the aniq artikli ishlatilmaydi: My friend is clever. Ammo ba'zi oddiy darajadagi sifatlar oldidan the kelib, ular otlashadi. Example: the poor-kambag‘allar, the blind-ko’rlar kabi.² Ushbu birikmalarda poor va blind so‘zлari aslida sifat so‘z turkumiga tegishli, biroq ular otlashganligi sababli ot so‘z turkumi vazifasida kela oladi: The unemployed want to find new jobs.--- Ihsizlar yangi ish topishni xohlaydi. (“unemployed”-otlashgan sifat). Shu bilan bирgalikda, oldidan sifat kelgan otni ikkinchi marotaba takrorlayotganimizda ham uning oldidan the aniq artiklini qo'llashimiz mumkin: My neighbour is a rich man. The rich man likes helping others. Qo'shimcha qilib aytganda, **not as...as - dek emas** birikmasi doimo oddiy darajada ishlatiladi. Example: He is not as tall as me. U mendek uzun emas.

2.COMPERATIVE DEGREE - expresses a higher degree of the quality and also is used when more than two things are compared each other. Qiyosiy darajada ikkita narsani bir-biri bilan taqqoslab, biri ikkinchiga qaraganda -roq ekanligini ko‘rsatamiz. Bu darajani ikki xil usul yordamida hosil qilishimiz mumkin. **1.** Agar sifat bir bo'g'inli bo'lsa, so‘zning oxirga -er affiksi qo'shiladi. Example: longer, bigger,

¹ English grammar&Composition. Wren, Martin. S. Chand & Company Ltd. New Delhi. 2018.85-page.

² “Step by step”. Shahboz Toshpo'latov. Regbooks nashriyoti. Toshkent: 2020. 174-bet.

older and etc. Quyida **-er** qo'shimchasini to'g'ri qo'llash uchun zarur bo'lgan ko'rsatmalar berilgan:

- a)** oxirga harfi **-e** bilan tugagan sifatlarga **-r** ning o'zi qo'shiladi: **close-** closer.
 - b)** oxirgi harfi **-y** bilan tugaydigan ikki bo'g'inli sifatlarga **-er** qo'shilganda, **-y** tushib qoladi va **-ier** qo'shiladi: **easy-easier**.
 - c)** oxirgi harfi bitta unli va bitta undosh bo'lsa, oxiridagi undosh yana bittaga ortadi: **big-bigger** kabi.
- 2.** Agar sifat ko'p bo'g'inli bo'lsa, ushbu sifat oldidan **more** so'zini qo'yish orqali yasaladi. Example: **more** important, **more** beautiful kabi.

Ko'p hollarda qiyosiy darajadagi sifatlar qatnashgan gapda ikkita narsani taqqoslaganda **-dan ko'ra/-ga qaraganda** ma'nolarida **than** ishlataladi. **Than** qatnashuvchi gaplarning uch xil strukturaviy formulalari mavjud: **the comparative adjective + than + noun/pronoun/S+Verb.**

- 1). I know English better than my sister. (noun)
- 2). My friend is more talanted than me. (pronoun)
- 3). My mum prepared more delicious salad than our neighbour cooked. (S+Verb).

3.SUPERLATATIVE DEGREE – denotes the highest degree of the quality and is used when more than two things (or sets of things) are compared. Orttirma daraja formalari orqali predmet, holatga oid belgi- xususiyatlarning ortiqlik ma'nolari, ya'ni belgining normal holatdan yuqoriligi, balandligi ifodalanadi. Orttirma darajadagi barcha sifatlar oldidan doimo **the** aniq artikli ishlataladi.

* Agar sifatlar bir bo'g'inli bo'lsa, orttirma darajani hosil qilish uchun **-est** affaksi qo'shiladi: big - the **biggest**, soft - the **softest** kabi.

Quyida **-est** qo'shimchasi qo'shilganda qanday imloviy qoidalar bo'lishi keltirilgan:

- a).** oxirgi harfi **-e** bilan tugagan sifatlarga **-st** qo'shiladi: **close-** the **closest**
- b).** oxirgi harfi **-y** bilan tugaydigan ikki bo'g'inli sifatlarning orttirma shakli **-est** bilan hosil qilinadi. Bu holatda oxiridagi **-y** tushib, o'rniga **-iest** qo'shiladi: **easy – the easiest**.
- c).** oxirgi harfi bitta unli va bitta undosh bilan tugagan sifatlarga **-est** qo'shilganda, oxiridagi undosh ikkilanadi: **big - the biggest**.

* Ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq bo'g'inli) sifatlar oldidan **eng** ma'nosida **most** so'zi ishlataladi: **expensive – the most expensive**, **intelligent - the most intelligent** and etc. Binobarin, ingliz tilida ba'zi sifatlar orttirma daraja shaklini ko'rsatishda yuqoridagi har ikki usuldan foydalanishi mumkin: Example:

clear		the clearest		the most clear
true		the truest		the most true
free		the freest		the most free
wise		the wisest		the most wise

Xulosa qilib aytganda, sifat so'z turkumi hamda sifat darajalari ingliz tili morfologiyasida qanchalar muhim rol o'ynasa, til o'rghanuvchilar uchun ham shunchalar ahamiyatga molik. Negaki, ingliz tili arkonlaridan biri bo'l mish – sifat va uning darajalari haqida mukammal darajada ma'lumotga ega bo'lgan shaxs ingliz tilida bemalol to'g'ri strukturadagi gaplarni tuza oladi va boshqa insonlar bilam muloqot qila olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Zero, ingliz tili – zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “English grammar&Composition”. Wren, Martin. S. Chand & Company Ltd. New Delhi. 2018.
2. “ Step by step”. Shahboz Toshpo'latov. Regbooks nashriyoti. Toshkent: 2020.
3. “O'zbek tili grammatikasi”. A. Nurmonov. O'zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent. 1975.
4. “Destination B2”. Malcolm Mann. Steve Taylore-Knowles. MACMILLAN. Thailand. 2008.